


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



NAVOIYSHUNOSLIK
fani bo‘yicha
(3-kurslar uchun)
ISHCHI FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar
Ta‘lim sohasi: 110000 – Pedagogika
Ta‘lim yo‘nalishi: 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti

Mashg‘ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr	
		V	VI
Ma‘ruza:	26 soat	18	8
Seminar mashg‘uloti:	78 soat	52	26
Umumiy auditoriya soati:	104 soat	70	34
Mustaqil ta‘lim soati:	84 soat	56	28
Umumiy o‘quv soati:	188 soat	126	62

Nukus – 2021

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 7-dekabrda 1000-sonli buyrug'ining 4-ilovasi bilan tasdiqlangan fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

- S.Matyakupov – Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrasida dotsent, filologiya fanlari nomzodi.
H.Allambergenov – Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Taqrizchilar:

- I.Qurbonboyev – Berdaq nomidagi QDU O'zbek filologiyasi kafedrasida dotsent, filologiya fanlari nomzodi.
K.Quramboyev – Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori

Ishchi fan dasturi Turkiy tillar fakulteti kengashining 2021-yil "28" - may dagi 10 - sonli bayonnoma bilan ma'qullandi.

Fakultet kengashi raisi:  B. Davletov

Ishchi fan dasturi O'zbek adabiyoti kafedrasida majlisida muhokama qilinib, "26" - may dagi 10 - sonli bayonnoma bilan tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri:  S. Matyakupov

Ishchi fan dasturi Nukus davlat pedagogika instituti O'quv-uslubiy kengashining 2021-yil "28" 06 dagi 11 - sonli qarori bilan tasdiqlangan.

1. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu fan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqidagi eng muhim ma'lumotlar, uning asarlari poetikasi, shoir lirikasi, xususan, „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyoti tarkibiga kiruvchi janrlarni, dostonlari va nasriy asarlarini sharhlab o'qitish bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan.

„Navoiyshunoslik“ fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 2-3-kurslarda o'qitilishi maqsadga muvofiq.

Filolog mutaxassisning Alisher Navoiy ijodi, uning o'zbek adabiyotidagi o'rni, asarlari badiiyati bo'yicha aniq va mukammal ma'lumotga ega bo'lishi talaba malakasini belgilovchi asos vazifasini o'taydi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida filologik ta'limni yo'lga qo'yishda ushbu fan alohida ahamiyat kasb etadi.

„Navoiyshunoslik“ fanini to'liq o'zlashtirish bakalavriat bosqichi talabalarining bilimlarini mustahkamlash, badiiy did va adabiy idrokni o'stirish hamda ularda tadqiqotchilik malakasini shakllantirish uchun zamin hozirlaydi.

2. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – Alisher Navoiyning boy adabiy va ilmiy merosi yuzasidan ta'lim berish orqali talaba yoshlarda yuksak ma'naviyat va ma'rifatni tarbiyalash. Navoiy ijodini o'rganish o'zbek mumtoz adabiyoti va milliy ma'naviyatimiz shakllanishi hamda takomili qonuniyatlarini anglash yo'lida ochqich vazifasini o'taydi. Yoshlarda sog'lom tafakkur tarzini shakllantirish, o'zbek adabiyoti tarixining eng muhim davri haqida har tomonlama bilim hosil qilish, ma'naviy dunyosi mukammal bo'lishiga ko'maklashish ushbu o'quv fanining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun „Navoiyshunoslik“ fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, fanga doir muammolarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Talaba:

– Alisher Navoiyning fenomeni, shaxsiyati, hayot yo'li, tafakkur dahosi, o'zbek tili va adabiyoti, millat madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi, ilmiy va ijodiy faoliyati, o'zbek davlatchiligi va ma'naviyati tarixida tutgan o'rni haqida **bilimga ega bo'lishi**;

– Navoiy asarlarining o'rganilish tarixi, mazmun-mohiyati, adabiy merosining vazn xususiyatlari, janrlar poetikasi, xamsachilik an'anasi, tatabbu', nazira, tavr, muxtara' g'azallarning o'ziga xos jihatlari, Navoiy ijodida qo'llanilgan qofiya unsurlari, badiiy san'atlarning hosil bo'lish yo'llari, majoz tariqida yozilgan she'rlarda qo'llanilgan ilmiy, diniy-asotiriy va tasavvufiy istilohlarni sharhlash, badiiy nasr stilistikasi, ramz, timsol va obrazlar mohiyatini, anglash **ko'nikmasiga ega bo'lishi**;

– Navoiy asarlarining tili, forsiy merosining badiiyati, ilmiy-filologik, tarixiy, irfoniy, diniy-falsafiy asarlarining o'ziga xos jihatlari, ma'no qatlamlari, o'zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko'rsatgan ta'siri bilan bog'liq masalalarni bilishi, Navoiy asarlarini o'rganish orqali mumtoz adabiyot namunalari to'g'ri tahlil va talqin qila olish bilimi, **malakasiga ega bo'lishi kerak**.

3. Ma'ruza mashg'ulotlari

(1-jadval)

№	Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari	Ma'ruza mashg'ulotlari mazmuni	Dars soatlari hajmi
V semestr			
1- modul. ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI			
1	Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir hayoti va ijodining manbalari. Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi.	Shoir hayoti va ijodining manbalari. Navoiy haqida shoirning o'z asarlaridagi ma'lumotlar. Xondamirning "Makorim ul-axloq", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoe'" asarlari. Zamondoshlarining asarlarida, XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug'at, tarixiy va badiiy asarlardagi ma'lumotlar. Navoiyshunoslik tarixidan. XX asr o'zbek navoiyshunosligi. Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o'rganilishi. Navoiy ijodining xorijda tadqiq etilishi. Navoiyshunoslik muammolari.	2
2	Alisher Navoiyning lirik merosi	Devonlari. Ilk devon. Oqquyunli muxlislar devoni. „Badoyi' ul- bidoya“ va „Navodir un-nihoya“ devonlari. „Badoyi' ul-bidoya“ debochasida devon tartib berish masalalari. „Xazoyin ul-maoniy“ – lirik qomus sifatida. Kulliyotning yaratilish tarixi, tarkibiy tuzilishi. Debochada kulliyotning tuzilishi va devonlarning yaratilishi bilan bog'liq masalalar. Kulliyotdagi devonlar tartibi va ularning o'ziga xos xususiyatlari. „Devoni Foni“ning tarkibiy tuzilishi, janr xususiyatlari, Devondagi gazallar talqini.	2
3	Xamsanavislik an'anasi va Alisher Navoiy „Xamsa“si. „Hayrat ul-abror“	Xamsachilik tarixidan. Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviy „Xamsa“lari. Hirot adabiy muhitida xamsanavislik. Abdurahmon Jomiy „Xamsa“sining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy beshligi birinchi turkiy „Xamsa“ sifatida. „Hayrat ul-abror“ mundarijaviy doston sifatida. Dostonning tarkibiy tuzilishi, sujet tartibi va kompozitsiyasi. Maqolat va hikoyatlar tahlili. Falsafiy va tasavvufiy talqinlar.	2
4	„Farhod va Shirin“ hamda „Layli va Majnun“ dostonlarida muallif badiiy niyatining ifodalanishi	„Farhod va Shirin“ dostonining muxtasar mundarijasi va timsollar olami. Farhod – ilohiy ishq yo'liga kirgan soliki majzub timsoli. Shirin – ilohiy mazhar. Dostondagi ramziy timsollar. Doston badiiyati. „Layli va Majnun“ – pok va yuksak muhabbat ifodasi. Dostonning yaratilish tarixi. Asardagi bosh qahramonlar hayoti. Dostonning g'oyaviy mundarijasi, timsollar olami. Majnun – ilohiy ishq yo'lidagi majzub timsoli. Dostondagi boshqa timsollar. Dostonning badiiy xususiyatlari.	2
5	„Sab'ai sayyor“ va „Saddi Iskandariy“ dostonlarining tarkibiy tuzilishi va badiiyati. „Lison ut-tayr“ –	„Sab'ai sayyor“ dostonidagi hikoyatlar tahlili. Shoh Bahrom timsoliga xos fazilat va ziddiyatlar. Dilorom – iste'dodli san'atkor, vafodor yor timsoli. Doston kompozitsiyasi. Asarning badiiy xususiyatlari. „Saddi Iskandariy“ – falsafiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy asar. Dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.	2

	irfoniy doston namunasi sifatida	Tarkibiy tuzilishi. Dostonda adolat timsoli. Doston tarkibidagi hikoyatlar. Dostonda tasavvuf falsafasi va axloqiga munosabat. Dostondagi vodiylar tavsifi. Dostonning ramziy timsollari olami. Simurg – najot timsoli.	
6	Alisher Navoiyning ilmiy merosi. Alisher Navoiyning tarixiy va yodnoma asarlari	<i>Adabiyotshunoslik asarlari.</i> „Mufradot“ – muammo janriga bag‘ishlangan asar. „Majolis un-nafois“ – turkiy tildagi birinchi tazkira sifatida. „Mezon ul-avzon“da aruz nazariyasiga doir masalalarning yoritilishi. Alisher Navoiy – tilshunos. „Muhokamat ul-lug‘atayn“da ikki til mubohasasi. <i>Tarixiy asarlari.</i> „Tarixi muluki ajam“ va „Tarixi anbiyo va hukamo“ – mumtoz tarixnavislik manbasi sifatida. <i>Yodnomalar</i> – memuar janrining yuksak namunasi sifatida. „Xamsat ul-mutahayyirin“ asarining mundarijasi. Asarda Jomiy timsoli. „Holoti Sayyid Hasan Ardasher“, „Holoti Pahlavon Muhammad“ asarlari. Tarixiy shaxslar talqini.	
7	Ma‘rifiy-ta‘limiy, diniy va tasavvufiy asarlari	„Arba‘in“ va hadislarni she‘rga solish an‘anasi. „Nazm ul-javohir“ asarida Hazrat Ali hikmatlariga munosabat. Asardagi ruboiylar talqini. „Siroj ul-muslimin“da ta‘limiy masalalar. „Nasoyim ul-muhabbat“ tazkirasida tasavvuf masalalari. „Vaqfiya“ asarida Alisher Navoiyning ijtimoiy faoliyati bilan bog‘liq masalalar. „Munojot“da tavba-tazarru va Haqqa bo‘lgan ishq ohanglari. „Munshaot“ – turkiy epistolyar janrining nodir namunasi. „Mahbub ul-qulub“ asari. Tarkibiy tuzilishi: ijtimoiy tabaqalar, axloqiy masalalar, pand-hikmatlar. Asarning badiiy xususiyatlari. <i>Navoiyga nisbat beriluvchi asarlar.</i> „Sab‘at abhur“ va „Risolayi tir andoxtan“ asarlari.	2
2- modul. NAVOIY POETIKASI			
8	Navoiy poetikasi haqida umumiy ma‘lumot. Navoiy she‘riyati va janrlar poetikasi. Nasriy asarlar badiiyati. „Devoni Foniya“ poetikasi.	Navoiy poetikasi o‘zbek mumtoz poetikasining tarkibiy qismi sifatida. Kursning maqsad va vazifalari. Navoiy davrida adabiy turlar. Nazm va nasrga munosabat. Nazmning „e‘joz maqomida“ ekanligi. Navoiyning lirik janrlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi. Shoirning yoshlik lirikasiga xos janrlar. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotining janr xususiyatlari. G‘azal va mustazod janrlari. Musammatlarning badiiy-kompozitsion xususiyatlari. Tarkibband, tarji‘band, soqiynoma va masnaviy janrlari. Kulliyotdagi kichik lirik janrlar. Ruboiylar, tuyuqlar, qit‘a va fardlar. <i>Nasriy asarlar</i> poetikasi. „Mahbub ul-qulub“ saj‘ning betakror namunasi sifatida. „Munojot“ asari poetikasi. „Devoni Foniya“ g‘azallarning yaratilish xususiyatlari. Musaddas va tarkibband janrlari. „Fusuli arbaa“da to‘rt fasl talqini va Husayn Boyqaro timsoli. „Sittai zaruriya“ qasidalar majmuasi sifatida. Qasidalarda tasavvufiy timsollar va salaflarga munosabat masalasi. Ta‘rix va lug‘z janrlarining badiiyati.	2
9	Alisher Navoiy aruzi. Ruboiy vaznlari.	Alisher Navoiygacha turkiy she‘riyatda aruz tizimi. Navoiy devonlaridagi bahrlar miqdori. Muxlislar tartib bergan devonlarning vazn xususiyatlari. „Badoe‘ ul-bidoya“ va	2

	<p>Navoiy „Xamsa“sining vazn xususiyatlari Badiiy san’atlar va ularning Navoiy she’riyatidagi o’rni. Navoiy ijodida qofiya tizimi</p>	<p>„Navodir un-nihoya“ devonlarida qo’llanilgan bahrlar. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotining vazn xususiyatlari. Kulliyotning vazn ko’rsatkichlari.</p> <p><i>Ruboiy vaznlari.</i> Axrab va axram shajarasi. Axrab shajarasiga mansub 12 vazn va ularning Navoiy ruboiylarida tutgan o’rni. Axram shajarasiga xos xususiyatlar. „Mezon ul-avzon“da aruz masalalari.</p> <p>Vazn va ritmik variatsiyalar. Hazaji axrab va xafif bahrlariga xos ritmik variatsiyalar. Ularning dostonlar mazmunini ochishdagi o’rni. Ritmik urg’u va „Xamsa“ dostonlari.</p> <p>Lafziy, ma’naviy va mushtarak san’atlar. Badiiy san’atlarning Navoiy lirikasidagi o’rni. „Xamsa“ dostonlarida qo’llanilgan badiiy san’atlar.</p> <p>Alisher Navoiyning qofiya tizimiga kiritgan yangiligi. Qofiya unsurlari. Shoir ijodida qo’llanilgan qofiya turlari. O’zak tarkibiga ko’ra farqlanuvchi qofiya turlari. Tuzilishiga ko’ra farqlanuvchi qofiya turlari. Radif va hojib. Saj’ va qofiya munosabatlari.</p>	
V semestr bo’yicha jami		18	
3-Modul. NAVOIY LIRIKASINI SHARHLAB O’QITISH			
1	<p>Lirik asarlarni sharhlash tamoyillari. Navoiy g’azallarini sharhlash mezonlari. Qit’alarni sharhlash mezonlari</p>	<p>Badiiy matn talqini asoslari. Sharh, tahlil, talqin, tafsir, ta’vil. Navoiy asarlariga sharh va izoh yozish an’anasi (lug’atlar, nasriy „Xamsa“lar, vazn ko’rsatkichlari).</p> <p>Alisher Navoiy g’azallarining yaratilish davri, qaysi devonga mansubligi, mavzusi, murakkab so’zlar lug’ati, baytlarning nasriy bayoni, shohbaytlar talqini, g’azalning badiiy xususiyatlari, umumiy mazmun-mohiyati.</p> <p>Mavzu mundarijasiga ko’ra tasnif: diniy-tasavvufiy, axloqiy-ta’limiy, hasbi hol, ijtimoiy, ishqiy mavzudagi qit’alar. Qit’alarning sarlavhalari va mazmun-mohiyati o’rtasidagi uyg’unlik.</p>	2
2	<p>Kichik lirik janrlar sharhi: ruboiy, tuyuq va fardlar. Masnaviyini sharhlab o’qitish Navoiy qasidalari sharhi. Soqiynomani sharhlab o’qitish</p>	<p>Ruboiylarning mavzu mundarijasiga ko’ra tasnifi. Tuyuqlarda shakldosh so’zlar va ma’no tanosubi. Fardlarda Navoiy hikmatlarining aks etishi.</p> <p>Yaratilish tarixi, adresati, tarkibiy tuzilishi. Navoiy badiiy ijod haqida.</p> <p>„Sittayi zaruriya“ va „Fusuli arbaa“ qasidalar turkumining arxitektonikasi va kompozitsion qurilishi. „Hiloliya“ qasidasining g’oyaviy mazmuni, sujeti, timsollar olami. Qasidani sharhlashda tajdidi matla’ san’atining ahamiyati.</p> <p>Soqiynomaning tarkibiy tuzilishi, unda davr va zamondoshlarga munosabat. Soqiynomada ishq va vafo talqini. Soqiynomaning badiiy xususiyatlari.</p>	2
4-Modul. NAVOIY DOSTONLARI VA NASRIY ASARLARINI SHARHLAB O’QITISH			
3	<p>Navoiy dostonlarini sharhlash tamoyillari. „Hayrat ul-abror“ni</p>	<p>Axloqiy-didaktik, ishqiy-sarguzasht, qahramonlik, tasavvufiy- falsafiy dostonlarni sharhlashning o’ziga xos xususiyatlari. „Xamsa“ dostonlarini nasriylashtirish an’anasi. „Xamsa“ tabdillari. „Xamsa“ sarlavhalari.</p> <p>Basmala bobining qiyosiy tahlili. Hamd, munojot, na’t va</p>	2

	<p>sharhlab o‘qitish „Farhod va Shirin“ni sharhlab o‘qitish „Layli va Majnun“ni sharhlab o‘qitish</p>	<p>me‘rojnomalardagi poetik tafakkur. Dostonda ko‘ngil obrazining talqini. Uch hayrat sharhi.</p> <p>Muqaddimaviy boblarda shoir dunyoqarashining in‘ikosi. Dostondagi shoir avtointerpretatsiyasi bilan bog‘liq baytlar sharhi. Ularning doston g‘oyasini ochishdagi o‘rni.</p> <p>Hamd va na‘tdagi bayon vositalarining doston mundarijasi bilan uyg‘unligi. Dostondagi tun ta‘rifi bobining g‘oyaviy talqini. Layli va Majnun – ishq mazhari. Majnun „munojotnomasi“ sharhi. Dostondagi „Ishq ta‘rifi“ bobining sharhi.</p>	
4	<p>„Sab‘ai sayyor“ dostonini sharhlab o‘qitish.</p> <p>„Saddi Iskandariy“ dostonini sharhlab o‘qitish</p> <p>Navoiy badiiy nasrini sharhlash tamoyillari</p>	<p>Muqaddimaviy boblar va doston mundarijasi orasidagi tanosub. Dostondagi yetti raqamining „sir“lari. Iltizom san‘ati aks etgan baytlar sharhi. Muqaddimada salaflar dostonlariga munosabat. Ranglar, qasrlar, sayyoralar va qahramonlar ruhiy holatining tanosubi.</p> <p>Hamd va na‘tdagi bayon vositalarining doston mundarijasi bilan uyg‘unligi. Tarixiy haqiqat va badiiy taxayyul. Dostonda adolat tamoyili. Dostondagi hikmatlar sharhi. Xotimaviy bobda „Xamsa“ takmili bilan bog‘liq fikrlar.</p> <p>Axloqiy-ta‘limiy asarlarni sharhlash („Mahbub ul-qulub“). Yodnomalarni sharhlab o‘qitish („Xamsat ul-mutahayyirin“, „Holoti Sayyid Hasan Ardasher“, „Holoti Pahlavon Muhammad“).</p>	2
VI semestr bo‘yicha jami			8

4. Seminar mashg‘ulotlari

Seminar mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlarini tashkil qilishda tavsiya etilgan ilmiy muammo yoki masala yuzasidan talabalarga avvaldan seminar rejasi va unga muvofiq adabiyotlar ro‘yxati beriladi. Seminar mashg‘ulotlariga ko‘proq nazariy muammolar olib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Talabalar seminar mashg‘ulotlarida Alisher Navoiy ijodi, asarlarining badiiyati, mazmun-mundarijasini o‘rganadilar, shu soha bo‘yicha nazariy va amaliy ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar hamda o‘zlashtirilgan ma‘lumot asosida Alisher Navoiy ijoi haqida tushunchaga ega bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

Seminar mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

(3-jadval)

T/r	Seminar mashg‘ulotlari mavzulari	Dars soatlari hajmi
V semestr		
1	„Hayrat ul-abror“ dostonining boblar bo‘yicha tavsifi.	2
2	„Hayrat ul-abror“ dostonidagi maqolat va hikoyatlar.	2
3	„Farhod va Shirin“ va „Layli va Majnun“ dostonlari. Dostonlardagi yetakchi timsollar tizimi. „Farhod va Shirin“ hamda „Layli va Majnun“ dostonlarida bosh qahramonlarning qiyosiy tavsifi. Tasavvuf masalalari.	4
4	„Sab‘ai sayyor“ va „Saddi Iskandariy“ dostonlari. Dostonlar kompozitsiyasi.	2
5	„Sab‘ai sayyor“ dostonidagi hikoyatlar tahlili.	2
6	„Saddi Iskandariy“ dostonidagi Iskandar voqeasi va keltirilgan hikoyatlar mutanosibliigi.	2
7	„Xamsa“ dostonlari badiiyati. „Xamsa“da vazn va mazmun munosabati	2
8	„Lison ut-tayr“ dostonidagi vodiylar tavsifi, hikoyatlar tahlili. „Lison ut-	4

	tayr“ dostonining mundarijasi. Dostonning tasavvufiy talqini.	
9	Navoiyning adabiyotshunoslik va tilshunoslik asarlari.	4
10	Navoiy lirikasiga mansub janrlar tavsifi (har bir janrga xos xususiyatlarni tahlil qilish).	2
11	Navoiy janrlari poetikasi. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotidagi janrlar badiiyati. Navoiy lirikasida qo‘llanilgan bahrlar. Shoir ijodidagi musta‘mali matbu‘ vaznlar.	2
12	Navoiy g‘azallarining vazn xususiyatlari.	2
13	Navoiy g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. G‘azallarning g‘oyaviy-badiiy tahlili.	2
14	Navoiy ijodida badiiy san‘atlar. Navoiyning badiiy san‘atlardan foydalanish mahorati.	2
15	„Xamsa“ dostonlarida ritmik variatsiyalar.	2
16	Navoiy nasrining poetik xususiyatlari.	2
17	Axloqiy-ta‘limiy g‘azallardan sharhlab kelish.	2
18	Rindona g‘azallardan sharhlab kelish. Orifona g‘azallar sharhi.	2
19	Hamd va na‘t g‘azallar sharhi („Ashrakat min...“, „Zihi...“).	2
20	Oshiqona („Qaro ko‘zum...“, „Tun oqshom keldi...“) g‘azallar sharhi.	2
21	Mustazodlarning g‘oyaviy-badiiy tahlili.	2
22	Ijtimoiy qit‘alardan sharhlab kelish. Axloqiy-ta‘limiy qit‘alar sharhi.	2
23	Navoiy hayoti va ijodi zamondoshlari xotirasida.	2
	V semestr bo‘yicha jami:	52
	VI semestr	
1	Muammolarning sharhi. Muammolarni sharhlash.	2
2	Muxammas, musaddas, tarkibband va tarji‘bandlar sharhi.	2
	„Hayrat ul-abror“dagi uch hayrat sharhi.	2
3	„Hayrat ul-abror“ va „Farhod va Shirin“ xotimalarining sharhi.	2
	„Farxod va Shirin“dagi Suqrot va Farhod suhbat (26-bob) sharhi.	2
	„Layli va Majnun“da Majnun „munojotnoma“si sharhi.	2
4	„Layli va Majnun“, „Sab‘ai sayyor“ dostonlaridagi so‘nggi boblar sharhi.	2
	„Sab‘ai sayyor“ va „Saddi Iskandariy“da me‘rojnoma sharhi.	2
5	„Saddi Iskandariy“ va „Lison ut-tayr“ dostonlaridagi xulosaviy boblar sharhi.	2
6	„Nasoyim ul-muhabbat“dagi hikoyatlar sharhi.	2
7	„Tarixi muluki Ajam“ va „Tarixi anbiyo va hukamo“ asarlari sharhi.	2
8	„Munajat“ asarining sharhi. „Munajat“ asari poetikasi.	2
	„Arbain“dagi qit‘alar sharhi.	2
	VI semestr bo‘yicha jami:	26

5. Mustaqil ta‘lim

„Navoiyshunoslik“ fanini o‘rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va ko‘nikma hosil qilish uchun mustaqil ta‘lim tizimiga asoslanib, kafedra o‘qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular badiiy adabiyotlarni mutolaa qiladilar, tahlil va talqin etadilar; qo‘shimcha adabiyotlar hamda internet saytlaridan foydalanib, referatlar va ilmiy ma‘ruzalar tayyorlaydilar, amaliy va seminar mashg‘ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko‘rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

T/r	Mustaqil ta‘lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
	V semestr	

1	Xondamirning „Makorim ul-axloq“ asarida Navoiy shaxsiyati va ijtimoiy faoliyatiga doir qarashlar.	4
2	Navoiy g‘azallarining mavzu bo‘yicha har bir turiga g‘azal yodlash va ularni g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish.	6
3	„Hayrat ul-abror“ dostonining boblar bo‘yicha tavsifi.	4
4	„Farhod va Shirin“ dostonining boblar bo‘yicha tavsifi.	4
5	„Layli va Majnun“ dostonining boblar bo‘yicha tavsifi.	4
6	„Sab‘ai sayyor“ dostonining boblar buyicha tavsifi.	4
7	„Saddi Iskandariy“ dostonining boblar bo‘yicha tavsifi.	4
8	„Lison ut-tayr“ dostonining boblar bo‘yicha tavsifi.	4
9	„Munshaot“ asaridagi maktublar tasnifi.	6
10	„Muhokamat ul-lug‘atayn“ asarida tilshunoslik masalalari.	4
11	„Majolis un-nafois“dagi 2-3-majlislar.	4
12	„Xamsat ul-mutahayyirin“da Abdurahmon Jomiy siymosi.	4
13	„Tarixi anbiyo va hukamo“da mursal payg‘ambarlar tavsifi.	4
	V semestr bo‘yicha jami:	56
	VI semestr	
14	„Hayrat ul-abror“dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o‘rganish.	2
15	„Farhod va Shirin“dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o‘rganish.	2
16	„Layli va Majnun“dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o‘rganish.	2
17	„Sab‘ai sayyor“dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini urganish.	2
18	„Saddi Iskandariy“dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o‘rganish.	2
19	Navoiyning 10 ta ruboiysini yod olish va sharhlash.	4
20	Tuyuqlardan yod olish va sharhlash.	2
21	„Arba‘in“dagi qit‘alardan yod olish va sharhlash.	4
22	„Nazm ul-javohir“dagi ruboiylardan yod olish va sharhlash.	4
23	„Vaqfiya“ asarida Navoiyning ijtimoiy faoliyati bilan bog‘liq o‘rinlarni sharhlash.	4
	VI semestr bo‘yicha jami:	28

6. Tavsiya etilayotgan oraliq nazorat savollari

V semestr

1. Alisher Navoiy hayoti va ijodining manbalari. Navoiy haqida shoirning o‘z asarlaridagi ma‘lumotlar.
2. Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida Navoiy haqida ma‘lumotlar.
3. Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoe’” asarida Navoiy haqida ma‘lumotlar.
4. Zamondoshlarining asarlarida Navoiy haqida ma‘lumotlar.
5. XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug‘at, tarixiy va badiiy asarlarda Navoiy haqidagi ma‘lumotlar.
6. Navoiyshunoslik tarixi.
7. XX asr o‘zbek navoiyshunosligi. Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o‘rganilishi.
8. Navoiy ijodining xorijda tadqiq etilishi.
9. Navoiyshunoslik muammolari.
10. Alisher Navoiy devonlari. Ilk devon.
11. Oqquyunli muxlislar devoni.
12. „Badoyi’ ul- bidoya“ va „Navodir un-nihoya“ devonlari. „Badoyi’ ul-bidoya“ debochasida devon tartib berish masalalari.
13. „Xazoyin ul-maoniy“ – lirik qomus sifatida. Kulliyotning yaratilish tarixi, tarkibiy tuzilishi.

14. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotidagi devonlar tartibi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
15. „Devoni Foniy“ning tarkibiy tuzilishi, janr xususiyatlari. Devondagi gazallar talqini.
16. Xamsachilik tarixidan. Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviy „Xamsa“lari.
17. Abdurahmon Jomiy „Xamsa“sining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
18. Alisher Navoiy beshligi birinchi turkiy „Xamsa“ sifatida.
19. „Hayrat ul-abror“ mundarijaviiy doston sifatida. Dostonning tarkibiy tuzilishi, sujet tartibi va kompozitsiyasi.
20. „Hayrat ul-abror“da maqolat va hikoyatlar tahlili. Falsafiy va tasavvufiy talqinlar.
21. „Farhod va Shirin“ dostonining muxtasar mundarijasi va timsollar olami.
22. „Farhod va Shirin“ dostonida Farhod – ilohiy ishq yo‘liga kirgan soliki majzub timsoli. Shirin – ilohiy mazhar. Dostondagi ramziy timsollar.
23. „Farhod va Shirin“ dostoni badiiyati.
24. „Layli va Majnun“ – pok va yuksak muhabbat ifodasi. Dostonning yaratilish tarixi.
25. „Layli va Majnun“ asaridagi bosh qahramonlar hayoti.
26. „Layli va Majnun“ dostonining g‘oyaviy mundarijasi, timsollar olami.
27. „Layli va Majnun“ dostonida Majnun – ilohiy ishq yo‘lidagi majzub timsoli. Dostondagi boshqa timsollar.
28. „Layli va Majnun“ dostonining badiiy xususiyatlari.
29. „Sab‘ai sayyor“ dostonidagi hikoyatlar tahlili. Shoh Bahrom timsoliga xos fazilat va ziddiyatlar.
30. „Sab‘ai sayyor“ dostonida Dilorom – iste‘dodli san‘atkor, vafodor yor timsoli.
31. „Sab‘ai sayyor“ dostoni kompozitsiyasi. Asarning badiiy xususiyatlari.
32. „Saddi Iskandariy“ – falsafiy-ta‘limiy, ijtimoiy-siyosiy va ma‘rifiy asar. Dostonning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
33. „Lison ut-tayr“ dostoni tarkibidagi hikoyatlar. „Lison ut-tayr“ dostonida tasavvuf falsafasi va axloqiga munosabat.
34. „Lison ut-tayr“ dostonidagi vodiylar tavsifi. Dostonning ramziy timsollari olami. Simurg‘ – najot timsoli.
35. Alisher Navoiyning adabiyotshunoslik asarlari.
36. „Mufradot“ – muammo janriga bag‘ishlangan asar.
37. „Majolis un-nafois“ – turkiy tildagi birinchi tazkira sifatida.
38. „Mezon ul-avzon“da aruz nazariyasiga doir masalalarning yoritilishi.
39. Alisher Navoiy – tilshunos. „Muhokamat ul-lug‘atayn“da ikki til mubohasasi.
40. Alisher Navoiyning tarixiy asarlari. „Tarixi muluki ajam“ va „Tarixi anbiyo va hukamo“ – mumtoz tarixnavislik manbasi sifatida.
41. Yodnomalar – memuar janrining yuksak namunasi sifatida. „Holoti Sayyid Hasan Ardasher“, „Holoti Pahlavon Muhammad“ asarlari. Tarixiy shaxslar talqini.
42. „Xamsat ul-mutahayyirin“ asarining mundarijasi. Asarda Jomiy timsoli.
43. „Arba‘in“ va hadislarni she‘rga solish an‘anasi.
44. „Nazm ul-javohir“ asarida Hazrat Ali hikmatlariga munosabat. Asardagi ruboiylar talqini.
45. „Siroj ul-muslimin“da ta‘limiy masalalar.
46. „Nasoyim ul-muhabbat“ tazkirasida tasavvuf masalalari.
47. „Vaqfiya“ asarida Alisher Navoiyning ijtimoiy faoliyati bilan bog‘liq masalalar.
48. „Munojot“da tavba-tazarru va Haqqa bo‘lgan ishq ohanglari.
49. „Munshaot“ – turkiy epistolyar janrining nodir namunasi.
50. „Mahbub ul-qulub“ asari. Tarkibiy tuzilishi: ijtimoiy tabaqalar, axloqiy masalalar, pand-hikmatlar. Asarning badiiy xususiyatlari.
51. Navoiyga nisbat beriluvchi asarlar. „Sab‘at abhur“ va „Risolayi tir andoxtan“ asarlari.
52. Navoiy poetikasi o‘zbek mumtoz poetikasining tarkibiy qismi sifatida.
53. Navoiy davrida adabiy turlar. Nazm va nasrga munosabat. Nazmning „e‘joz maqomida“ ekanligi.

54. Navoiyning lirik janrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. Shoirning yoshlik lirikasiga xos janrlar.
55. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotining janr xususiyatlari. G'azal va mustazod janrlari.
56. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotida musammatlarning badiiy-kompozitsion xususiyatlari.
57. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotida tarkibband, tarji'band, soqiynoma va masnaviy janrlari.
58. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotidagi kichik lirik janrlar. Ruboiylar, tuyuqlar, qit'a va fardlar.
59. Alisher Navoiyning nasriy asarlari poetikasi. „Mahbub ul-qulub“ saj'ning betakror namunasi sifatida.
60. „Munojot“ asari poetikasi.
61. „Devoni Foni“ g'azallarning yaratilish xususiyatlari.
62. „Devoni Foni“da musaddas va tarkibband janrlari.
63. „Fusuli arbaa“da to'rt fasl talqini va Husayn Boyqaro timsoli.
64. „Sittai zaruriya“ qasidalar majmuasi sifatida. Qasidalarda tasavvufiy timsollar va salaflarga munosabat masalasi.
65. Alisher Navoiygacha turkiy she'riyatda aruz tizimi. Navoiy devonlaridagi bahrlar miqdori.
66. Alisher Navoiyning muxlislar tartib bergan devonlarining vazn xususiyatlari.
67. „Badoe' ul-bidoya“ va „Navodir un-nihoya“ devonlarida qo'llanilgan bahrlar.
68. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotining vazn xususiyatlari. Kulliyotning vazn ko'rsatkichlari.
69. Ruboiy vaznlari. Axrab va axram shajarasasi. Axrab shajarasiga mansub 12 vazn va ularning Navoiy ruboiylarida tutgan o'rni. Axram shajarasiga xos xususiyatlar.
70. „Mezon ul-avzon“da aruz masalalari. Vazn va ritmik variatsiyalar. Hazaji axrab va xafif bahrlariga xos ritmik variatsiyalar. Ularning dostonlar mazmunini ochishdagi o'rni. Ritmik urg'u va „Xamsa“ dostonlari.
71. Lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar. Badiiy san'atlarning Navoiy lirikasidagi o'rni.
72. „Xamsa“ dostonlarida qo'llanilgan badiiy san'atlar.
73. Alisher Navoiyning qofiya tizimiga kiritgan yangiligi. Qofiya unsurlari. Shoir ijodida qo'llanilgan qofiya turlari.

VI semestr

1. Lirik asarlarni sharhlash tamoyillari. Badiiy matn talqini asoslari. Sharh, tahlil, talqin, tafsir, ta'vil.
2. Navoiy asarlariga sharh va izoh yozish an'anasi (lug'atlar, nasriy „Xamsa“lar, vazn ko'rsatkichlari).
3. Navoiy g'azallarini sharhlash mezonlari. Alisher Navoiy g'azallarining yaratilish davri, qaysi devonga mansubligi, mavzusi, murakkab so'zlar lug'ati, baytlarning nasriy bayoni, shohbaytlar talqini, g'azalning badiiy xususiyatlari, umumiy mazmun-mohiyati.
4. Alisher Navoiy qit'alarini sharhlash mezonlari. Mavzu mundarijasiga ko'ra tasnif: diniy-tasavvufiy, axloqiy-ta'limiy, hasbi hol, ijtimoiy, ishqiy mavzudagi qit'alar. Qit'alarining sarlavhalari va mazmun-mohiyati o'rtasidagi uyg'unlik.
5. Alisher navoiy ruboiylarining mavzu mundarijasiga ko'ra tasnifi.
6. Navoiy tuyuqlarida shakldosh so'zlar va ma'no tanosubi.
7. Fardlarda Navoiy hikmatlarining aks etishi.
8. Navoiy masnaviylarini sharhlab o'qitish. Yaratilish tarixi, adresati, tarkibiy tuzilishi.
9. Navoiy badiiy ijod haqida.
10. „Sittayi zaruriya“ va „Fusuli arbaa“ qasidalar turkumining arxitektonikasi va kompozitsion qurilishi.
11. „Hiloliya“ qasidasining g'oyaviy mazmuni, sujeti, timsollar olami. Qasidani sharhlashda tajdidi matla' san'atining ahamiyati.
12. Soqiynomaning tarkibiy tuzilishi, unda davr va zamondoshlarga munosabat.
13. Soqiynomada ishq va vaf o' talqini. Soqiynomaning badiiy xususiyatlari.
14. Axloqiy-didaktik, ishqiy-sarguzasht, qahramonlik, tasavvufiy-falsafiy dostonlarni sharhlashning o'ziga xos xususiyatlari.

15. „Xamsa“ dostonlarini nasriylashtirish an’anasi.
16. „Xamsa“ tabdillari. „Xamsa“ sarlavhalari.
17. „Hayrat ul-abror“da basmala bobining qiyosiy tahlili.
18. „Hayrat ul-abror“ dostonida hamd, munojot, na’t va me’rojnomalardagi poetik tafakkur.
19. „Hayrat ul-abror“ dostonida ko‘ngil obrazining talqini. Uch hayrat sharhi.
20. „Farhod va Shirin“ dostonining muqaddimaviy boblarida shoir dunyoqarashining in’ikosi. Dostondagi shoir avtointerpretatsiyasi bilan bog‘liq baytlar sharhi. Ularning doston g‘oyasini ochishdagi o‘rni.
21. „Layli va Majnun“ dostonida hamd va na’tdagi bayon vositalarining doston mundarijasi bilan uyg‘unligi.
22. „Layli va Majnun“ dostonidagi tun ta’rifi bobining g‘oyaviy talqini.
23. Layli va Majnun – ishq mazhari. Majnun „munojotnomasi“ sharhi.
24. „Layli va Majnun“ dostonidagi „Ishq ta’rifi“ bobining sharhi.
25. „Sab’ai sayyor“ dostonining muqaddimaviy boblari va doston mundarijasi orasidagi tanosub.
26. „Sab’ai sayyor“ dostonidagi yetti raqamining „sir“lari. Iltizom san’ati aks etgan baytlar sharhi.
27. „Sab’ai sayyor“ dostoni muqaddimasida salaflar dostonlariga munosabat. Ranglar, qasrlar, sayyoralar va qahramonlar ruhiy holatining tanosubi.
28. „Saddi Iskandariy“ dostoni hamd va na’tidagi bayon vositalarining doston mundarijasi bilan uyg‘unligi.
29. „Saddi Iskandariy“ dostonida tarixiy haqiqat va badiiy taxayyul. Dostonda adolat tamoyili.
30. „Saddi Iskandariy“ dostonidagi hikmatlar sharhi. Xotimaviy bobda „Xamsa“ takmili bilan bog‘liq fikrlar.
31. Axloqiy-ta’limiy asarlarni sharhlash („Mahbub ul-qulub“).
32. Yodnomalarni sharhlab o‘qitish („Xamsat ul-mutahayyirin“, „Holoti Sayyid Hasan Ardasher“, „Holoti Pahlavon Muhammad“).

7. Tavsiya etilayotgan yakuniy nazorat savollari

VI semestr

1. Alisher Navoiy hayoti va ijodining manbalari. Navoiy haqida shoirning o‘z asarlaridagi ma’lumotlar.
2. Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida Navoiy haqida ma’lumotlar.
3. Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoe’” asarida Navoiy haqida ma’lumotlar.
4. Zamondoshlarining asarlarida Navoiy haqida ma’lumotlar.
5. XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug‘at, tarixiy va badiiy asarlarda Navoiy haqidagi ma’lumotlar.
6. Navoiyshunoslik tarixi.
7. XX asr o‘zbek navoiyshunosligi. Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o‘rganilishi.
8. Navoiy ijodining xorijda tadqiq etilishi.
9. Navoiyshunoslik muammolari.
10. Alisher Navoiy devonlari. Ilk devon.
11. Oqquyunli muxlislar devoni.
12. „Badoyi’ ul- bidoya“ va „Navodir un-nihoya“ devonlari. „Badoyi’ ul-bidoya“ debochasida devon tartib berish masalalari.
13. „Xazoyin ul-maoniy“ – lirik qomus sifatida. Kulliyotning yaratilish tarixi, tarkibiy tuzilishi.
14. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotidagi devonlar tartibi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
15. „Devoni Foni“ning tarkibiy tuzilishi, janr xususiyatlari. Devondagi gazallar talqini.
16. Xamsachilik tarixidan. Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviy „Xamsa“lari.
17. Abdurahmon Jomiy „Xamsa“sining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

18. Alisher Navoiy beshligi birinchi turkiy „Xamsa“ sifatida.
19. „Hayrat ul-abror“ mundarijaviy doston sifatida. Dostonning tarkibiy tuzilishi, sujet tartibi va kompozitsiyasi.
20. „Hayrat ul-abror“da maqolat va hikoyatlar tahlili. Falsafiy va tasavvufiy talqinlar.
21. „Farhod va Shirin“ dostonining muxtasar mundarijasi va timsollar olami.
22. „Farhod va Shirin“ dostonida Farhod – ilohiy ishq yo‘liga kirgan soliki majzub timsoli. Shirin – ilohiy mazhar. Dostondagi ramziy timsollar.
23. „Farhod va Shirin“ dostoni badiiyati.
24. „Layli va Majnun“ – pok va yuksak muhabbat ifodasi. Dostonning yaratilish tarixi.
25. „Layli va Majnun“ asaridagi bosh qahramonlar hayoti.
26. „Layli va Majnun“ dostonining g‘oyaviy mundarijasi, timsollar olami.
27. „Layli va Majnun“ dostonida Majnun – ilohiy ishq yo‘lidagi majzub timsoli. Dostondagi boshqa timsollar.
28. „Layli va Majnun“ dostonining badiiy xususiyatlari.
29. „Sab‘ai sayyor“ dostonidagi hikoyatlar tahlili. Shoh Bahrom timsoliga xos fazilat va ziddiyatlar.
30. „Sab‘ai sayyor“ dostonida Dilorom – iste‘odli san‘atkor, vafodor yor timsoli.
31. „Sab‘ai sayyor“ dostoni kompozitsiyasi. Asarning badiiy xususiyatlari.
32. „Saddi Iskandariy“ – falsafiy-ta‘limiy, ijtimoiy-siyosiy va ma‘rifiy asar. Dostonning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
33. „Lison ut-tayr“ dostoni tarkibidagi hikoyatlar. „Lison ut-tayr“ dostonida tasavvuf falsafasi va axloqiga munosabat.
34. „Lison ut-tayr“ dostonidagi vodiylar tavsifi. Dostonning ramziy timsollari olami. Simurg‘ – najot timsoli.
35. Alisher Navoiyning adabiyotshunoslik asarlari.
36. „Mufradot“ – muammo janriga bag‘ishlangan asar.
37. „Majolis un-nafois“ – turkiy tildagi birinchi tazkira sifatida.
38. „Mezon ul-avzon“da aruz nazariyasiga doir masalalarning yoritilishi.
39. Alisher Navoiy – tilshunos. „Muhokamat ul-lug‘atayn“da ikki til muhobasasi.
40. Alisher Navoiyning tarixiy asarlari. „Tarixi muluki ajam“ va „Tarixi anbiyo va hukamo“ – mumtoz tarixnavislik manbasi sifatida.
41. Yodnomalar – memuar janrining yuksak namunasi sifatida. „Holoti Sayyid Hasan Ardasher“, „Holoti Pahlavon Muhammad“ asarlari. Tarixiy shaxslar talqini.
42. „Xamsat ul-mutahayyirin“ asarining mundarijasi. Asarda Jomiy timsoli.
43. „Arba‘in“ va hadislarni she‘rga solish an‘anasi.
44. „Nazm ul-javohir“ asarida Hazrat Ali hikmatlariga munosabat. Asardagi ruboiylar talqini.
45. „Siroj ul-muslimin“da ta‘limiy masalalar.
46. „Nasoyim ul-muhabbat“ tazkirasida tasavvuf masalalari.
47. „Vaqfiya“ asarida Alisher Navoiyning ijtimoiy faoliyati bilan bog‘liq masalalar.
48. „Munojot“da tavba-tazarru va Haqqa bo‘lgan ishq ohanglari.
49. „Munshaot“ – turkiy epistolyar janrining nodir namunasi.
50. „Mahbub ul-qulub“ asari. Tarkibiy tuzilishi: ijtimoiy tabaqalar, axloqiy masalalar, pand-hikmatlar. Asarning badiiy xususiyatlari.
51. Navoiyga nisbat beriluvchi asarlar. „Sab‘at abhur“ va „Risolayi tir andoxtan“ asarlari.
52. Navoiy poetikasi o‘zbek mumtoz poetikasining tarkibiy qismi sifatida.
53. Navoiy davrida adabiy turlar. Nazm va nasrga munosabat. Nazmning „e‘joz maqomida“ ekanligi.
54. Navoiyning lirik janrlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi. Shoirning yoshlik lirikasiga xos janrlar.
55. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotining janr xususiyatlari. G‘azal va mustazod janrlari.
56. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotida musammatlarning badiiy-kompozitsion xususiyatlari.

57. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotida tarkibband, tarji'band, soqiynoma va masnaviy janrlari.
58. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotidagi kichik lirik janrlar. Ruboiylar, tuyuqlar, qit'a va fardlar.
59. Alisher Navoiyning nasriy asarlari poetikasi. „Mahbub ul-qulub“ saj'ning betakror namunasi sifatida.
60. „Munojot“ asari poetikasi.
61. „Devoni Foniya“ g'azallarining yaratilish xususiyatlari.
62. „Devoni Foniya“da musaddas va tarkibband janrlari.
63. „Fusuli arbaa“da to'rt fasl talqini va Husayn Boyqaro timsoli.
64. „Sittai zaruriya“ qasidalar majmuasi sifatida. Qasidalarda tasavvufiy timsollar va saloqlarga munosabat masalasi.
65. Alisher Navoiygacha turkiy she'riyatda aruz tizimi. Navoiy devonlaridagi bahrlar miqdori.
66. Alisher Navoiyning muxlislar tartib bergan devonlarining vazn xususiyatlari.
67. „Badoe' ul-bidoya“ va „Navodir un-nihoya“ devonlarida qo'llanilgan bahrlar.
68. „Xazoyin ul-maoniy“ kulliyotining vazn xususiyatlari. Kulliyotning vazn ko'rsatkichlari.
69. Ruboiy vaznlari. Axrab va axram shajarasi. Axrab shajarasiga mansub 12 vazn va ularning Navoiy ruboiylarida tutgan o'rni. Axram shajarasiga xos xususiyatlar.
70. „Mezon ul-avzon“da aruz masalalari. Vazn va ritmik variatsiyalar. Hazaji axrab va xafif bahrlariga xos ritmik variatsiyalar. Ularning dostonlar mazmunini ochishdagi o'rni. Ritmik urg'u va „Xamsa“ dostonlari.
71. Lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar. Badiiy san'atlarning Navoiy lirikasidagi o'rni.
72. „Xamsa“ dostonlarida qo'llanilgan badiiy san'atlar.
73. Alisher Navoiyning qofiya tizimiga kiritgan yangiligi. Qofiya unsurlari. Shoir ijodida qo'llanilgan qofiya turlari.
74. Lirik asarlarni sharhlash tamoyillari. Badiiy matn talqini asoslari. Sharh, tahlil, talqin, tafsir, ta'vil.
75. Navoiy asarlariga sharh va izoh yozish an'anasi (lug'atlar, nasriy „Xamsa“lar, vazn ko'rsatkichlari).
76. Navoiy g'azallarini sharhlash mezonlari. Alisher Navoiy g'azallarining yaratilish davri, qaysi devonga mansubligi, mavzusi, murakkab so'zlar lug'ati, baytlarning nasriy bayoni, shohbaytlar talqini, g'azalning badiiy xususiyatlari, umumiy mazmun-mohiyati.
77. Alisher Navoiy qit'alarni sharhlash mezonlari. Mavzu mundarijasiga ko'ra tasnif: diniy-tasavvufiy, axloqiy-ta'limiy, hasbi hol, ijtimoiy, ishqiy mavzudagi qit'alar. Qit'alarning sarlavhalari va mazmun-mohiyati o'rtasidagi uyg'unlik.
78. Alisher navoiy ruboiylarining mavzu mundarijasiga ko'ra tasnifi.
79. Navoiy tuyuqlarida shakldosh so'zlar va ma'no tanosubi.
80. Fardlarda Navoiy hikmatlarining aks etishi.
81. Navoiy masnaviylarini sharhlab o'qitish. Yaratilish tarixi, adresati, tarkibiy tuzilishi.
82. Navoiy badiiy ijod haqida.
83. „Sittai zaruriya“ va „Fusuli arbaa“ qasidalar turkumining arxitektonikasi va kompozitsion qurilishi.
84. „Hiloliya“ qasidasining g'oyaviy mazmuni, sujeti, timsollar olami. Qasidani sharhlashda tajdidi matla' san'atining ahamiyati.
85. Soqiynomaning tarkibiy tuzilishi, unda davr va zamondoshlarga munosabat.
86. Soqiynomada ishq va vafot talqini. Soqiynomaning badiiy xususiyatlari.
87. Axloqiy-didaktik, ishqiy-sarguzasht, qahramonlik, tasavvufiy-falsafiy dostonlarni sharhlashning o'ziga xos xususiyatlari.
88. „Xamsa“ dostonlarini nasriylashtirish an'anasi.
89. „Xamsa“ tabdillari. „Xamsa“ sarlavhalari.
90. „Hayrat ul-abror“da basmala bobining qiyosiy tahlili.
91. „Hayrat ul-abror“ dostonida hamd, munojot, na't va me'rojnomalardagi poetik tafakkur.
92. „Hayrat ul-abror“ dostonida ko'ngil obrazining talqini. Uch hayrat sharhi.

93. „Farhod va Shirin“ dostonining muqaddimaviy boblarida shoir dunyoqarashining in’ikosi. Dostondagi shoir avtointerpretatsiyasi bilan bog‘liq baytlar sharhi. Ularning doston g‘oyasini ochishdagi o‘rni.

94. „Layli va Majnun“ dostonida hamd va na’tdagi bayon vositalarining doston mundarijasi bilan uyg‘unligi.

95. „Layli va Majnun“ dostonidagi tun ta’rifi bobining g‘oyaviy talqini.

96. Layli va Majnun – ishq mazhari. Majnun „munojotnomasi“ sharhi.

97. „Layli va Majnun“ dostonidagi „Ishq ta’rifi“ bobining sharhi.

98. „Sab’ai sayyor“ dostonining muqaddimaviy boblari va doston mundarijasi orasidagi tanosub.

99. „Sab’ai sayyor“ dostonidagi yetti raqamining „sir“lari. Iltizom san’ati aks etgan baytlar sharhi.

100. „Sab’ai sayyor“ dostoni muqaddimasida salaflar dostonlariga munosabat. Ranglar, qasrlar, sayyoralar va qahramonlar ruhiy holatining tanosubi.

101. „Saddi Iskandariy“ dostoni hamd va na’tdagi bayon vositalarining doston mundarijasi bilan uyg‘unligi.

102. „Saddi Iskandariy“ dostonida tarixiy haqiqat va badiiy taxayyul. Dostonda adolat tamoyili.

103. „Saddi Iskandariy“ dostonidagi hikmatlar sharhi. Xotimaviy bobda „Xamsa“ takmili bilan bog‘liq fikrlar.

104. Axloqiy-ta’limiy asarlarni sharhlash („Mahbub ul-qulub“).

105. Yodnomalarni sharhlab o‘qitish („Xamsat ul-mutahayyirin“, „Holoti Sayyid Hasan Ardasher“, „Holoti Pahlavon Muhammad“).

8. Fan bo‘yicha talabalar bilimni baholash va nazorat qilish me‘zonlari

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018- yil 26- sentabrdagi 3069- son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan „Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi“ nizomga muvofiq ishlab chiqildi.

Baholash usullari	Ekspress testlar, yozma ishlar, og‘zaki so‘rov, prezentatsiyalar va boshqalar
Baholash mezonlari	<p>„5“ baho (a’lo) – Alisher Navoiyning fenomeni, shaxsiyati, hayot yo‘li, tafakkur dahosi, o‘zbek tili va adabiyoti, millat madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi, ilmiy va ijodiy faoliyati, o‘zbek davlatchiligi va ma’naviyati tarixida tutgan o‘rni haqida chuqur bilimga ega bo‘lishi;</p> <p>– Navoiy asarlarining o‘rganilish tarixi, mazmun-mohiyati, adabiy merosining vazn xususiyatlari, janrlar poetikasi, xamsachilik an’anasi, tatabbu’, nazira, tavr, muxtara’ g‘azallarning o‘ziga xos jihatlari, Navoiy ijodida qo‘llanilgan qofiya unsurlari, badiiy san’atlarning hosil bo‘lish yo‘llari, majoz tariqida yozilgan she’rlarda qo‘llanilgan ilmiy, diniy-asotiriy va tasavvufiy istilohlarni akademik sharhlash, badiiy nasr stilistikasi, ramz, timsol va obrazlar mohiyatini chuqur anglash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;</p> <p>– Navoiy asarlarining tili, forsiy merosining badiiyati, ilmiy-filologik, tarixiy, irfoniy, diniy-falsafiy asarlarining o‘ziga xos jihatlari, ma’no qatlamlari, o‘zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko‘rsatgan ta’siri bilan bog‘liq masalalarni bilishi, Navoiy asarlarini o‘rganish orqali mumtoz adabiyot namunalarini aniq va to‘g‘ri tahlil va talqin qila olish bilimi, malakasiga ega bo‘lishi;</p> <p>– fan bo‘yicha egallagan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalardan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olish va shaxsiy fikrlari orqali ijodkorlik qobiyatini namunali darajada namoyon etish kompetensiyalariga ega bo‘lishi kerak.</p> <p>„4“ baho (yaxshi) – Alisher Navoiyning fenomeni, shaxsiyati, hayot yo‘li,</p>

	<p>tafakkur dahosi, o‘zbek tili va adabiyoti, millat madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi, ilmiy va ijodiy faoliyati, o‘zbek davlatchiligi va ma‘naviyati tarixida tutgan o‘rni haqida yaxshi bilimga ega bo‘lishi;</p> <p>– Navoiy asarlarining o‘rganilish tarixi, mazmun-mohiyati, adabiy merosining vazn xususiyatlari, janrlar poetikasi, xamsachilik an‘anasi, tatabbu’, nazira, tavr, muxtara’ g‘azallarning o‘ziga xos jihatlari, Navoiy ijodida qo‘llanilgan qofiya unsurlari, badiiy san‘atlarning hosil bo‘lish yo‘llari, majoz tariqida yozilgan she‘rlarda qo‘llanilgan ilmiy, diniy-asotiriy va tasavvufiy istilohlarni atroflicha sharhlash, badiiy nasr stilistikasi, ramz, timsol va obrazlar mohiyatini yaxshi anglash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;</p> <p>– Navoiy asarlarining tili, forsiy merosining badiiyati, ilmiy-filologik, tarixiy, irfoniy, diniy-falsafiy asarlarining o‘ziga xos jihatlari, ma‘no qatamlari, o‘zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko‘rsatgan ta‘siri bilan bog‘liq masalalarni bilishi, Navoiy asarlarini o‘rganish orqali mumtoz adabiyot namunalarni tahlil va talqin qila olish bilimi, malakasiga ega bo‘lishi;</p> <p>– fan bo‘yicha egallagan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalardan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olish va shaxsiy fikrlari orqali ijodkorlik qobiyatini namoyon etishi kerak.</p> <p>„3“ baho (qoniqarsiz) – Alisher Navoiyning hayot yo‘li, o‘zbek tili va adabiyoti, millat madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi, ilmiy va ijodiy faoliyati, o‘zbek davlatchiligi va ma‘naviyati tarixida tutgan o‘rni haqida qoniqarli bilimga ega bo‘lishi;</p> <p>– Navoiy asarlarining o‘rganilish tarixi, mazmun-mohiyati, adabiy merosining vazn xususiyatlari, janrlar poetikasi, xamsachilik an‘anasi, Navoiy ijodida qo‘llanilgan qofiya unsurlari, badiiy san‘atlarning hosil bo‘lish yo‘llarini qoniqarli darajada sharhlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;</p> <p>– Navoiy asarlarining tili, forsiy merosining badiiyati, ilmiy-filologik, diniy-falsafiy asarlari, Navoiy asarlarini o‘rganish orqali mumtoz adabiyot namunalarni tahlil va talqin qila olish bilimi, malakasiga ega bo‘lishi;</p> <p>„2“ baho (qoniqarsiz) – Alisher Navoiyning hayot yo‘li, o‘zbek tili va adabiyoti, millat madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi, ilmiy va ijodiy faoliyati, o‘zbek davlatchiligi va ma‘naviyati tarixida tutgan o‘rni haqida qoniqarli bilimga ega bo‘lmasa;</p> <p>– Navoiy asarlarining o‘rganilish tarixi, mazmun-mohiyati, janrlar poetikasi, xamsachilik an‘anasi, Navoiy ijodida qo‘llanilgan qofiya unsurlarini sharhlash ko‘nikmasiga ega bo‘lmasa;</p> <p>– mavzular yuzasidan tushunchaga ega bo‘lmasa hamda mavzu yoki savol mohiyatini tushunmasa, berilgan mavzu yoki savol mohiyatini bil bayon eta olmasa.</p>	
Baholash turlari	Baholash	O‘tkazish vaqti
<p>Joriy nazorat:</p> <p>– Talabani oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda, uning o‘quv mashg‘ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentabrdagi 3069- son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan „Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va</p>	Semestr davomida
<p>Oraliq nazorat:</p> <p>– ma‘ruza o‘qituvchisi tomonidan qabul qilinadi;</p> <p>– oraliq nazorat yozma ish, og‘zaki yoki test shaklida olinadi;</p> <p>– oraliq nazorat mavzulari kafedraning yetakchi professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi;</p> <p>– oraliq nazorat javobi 3 kun ichida jurnal va</p>		Semestr davomida fan mavzulari 55 % – 60 % bajarilgandan so‘ng

<p>elektron tizimda aks etilishi hamda talabalarga yetkazilishi shart.</p> <ul style="list-style-type: none"> – talabaga oraliq nazorat turidan „2“ (qoniqarsiz) baho olsa, unga 2 (ikki) martagacha qayta topshirishga imkoniyat beriladi. – oraliq nazorat turini topshira olmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo‘yicha „2“ baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi. – oraliq nazoratni o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartibi buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o‘tkaziladi. 	<p>baholash tizimi to‘g‘risida“gi nizomga muvofiq</p>	
<p>Yakuniy nazorat</p> <ul style="list-style-type: none"> – yakuniy nazorat turi otkaziladigan kuniga qadar talabalar joriy va oraliq ballari yig‘indisidan xabardor bo‘lishi shart. – yakuniy nazorat tuzilgan va tasdiqlangan komissiya a‘zolari tomonidan qabul qilinadi. – mazkur fan bo‘yicha yakuniy nazorat semestrning oxirgi haftasi mobaynida o‘quv-uslubiy boshqarma tomonidan tuzilgan qat’iy jadval asosida belgilangan auditoriyada og‘zaki, yozma yoki test shaklida o‘tkaziladi. – og‘zaki shaklda olingan yakuniy nazorat javobi shu kunning o‘zida jurnal, elektron tizim va qaydnomalarda aks etilishi hamda talabalarga yetkazilishi shart. 		<p>semestr davomida ajratilgan soatlar to‘liq bajarilgandan so‘ng</p>

9. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlari hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

T/r	Muallif	Adabiyot nomi	Nashr yili	Adabiyot-ning ARMdagi shifri	Adabiyot-ning ARMdagi inventar raqami	ARMdagi soni	ARM imzosi
1	Sirojiddinov Sh., Yusupova Sh., Davlatov O.	Navoiyshunoslik (darslik)	–T.: Tamaddun, 2018				
2	Yusupova D.	O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). O‘quv qo‘llanma.	–T.: Tamaddun, 2016				
3	Sirojiddinov Sh.	Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili.	–T.: Akademnashr, 2011.				
4	Is‘hoqov Y..	Navoiy poetikasi	–T.: Fan, 1983.				
5	Komilov N.	Xizr chashmasi.	–T.: Ma‘naviyat, 2005.				
6	Komilov N.	Ma‘nolar olamiga safar.	–T.: Tamaddun, 2016.				
7	Alisher Navoiy.	G‘azallar. Sharhlar.	–T.: Kamalak, 1991.				
8	Haqqul I.	Navoiyga qaytish. 2-kitob.	–T., 2011.				
9	Mas‘ul muharrir Sh.Sirojiddinov.	Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. 1-2-jildlar	–T.: Sharq, 2016.				

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi“ to‘g‘risidagi Farmoni (Xalq so‘zi, 2017- yil, 8- fevral).
3. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O‘zbekiston, 2017.
5. „Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari“ to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (Xalq so‘zi, 2017- yil, 21- aprel).
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 1-20 jildlar. –T.: Fan, 1987-2003.
7. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 1-10 jildlar. –T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2011.
8. Komilov N. Tasavvuf. –T.: Movaraunnahr, 2009.
9. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. –T.: O‘zbekiston, 2016.
10. Курамбоев К. Навоийнинг ижод бўстонида илҳомланиб... Тошкент: Ўзбекистон, 2021.
11. Matyakupov S., Allambergenov H. Navoiyshunoslik. Nukus, NDPI, 2015.

Elektron ta‘lim resurslari:

www.tdpu.uz
 www.pedagog.uz
 www.ziyonet.uz
 www.edu.uz
 www.o‘zbek adabiyoti.com
 www.ziyouz.com